

**O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi
Vazirligi**

**Navoiy davlat pedagogika instituti
«Tabiatshunoslik» fakul'teti**

«Geografiya va iqtisodiyot nazariyasi» kafedrası

***“O'zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyati va
ish bilan bandlik ”mavzusidagi***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Bajardi: «Tabiatshunoslik» fakul'teti
«Geografiya va IBA» bo'limi
4-A ko'rs talabasi
Xudayqulov Maqsud Olimovich**

**ILMIY RAXBAR :
O'qituvchi. O'rakov T.M.**

Navoiy-2012 yil

**O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi
Vazirligi
Navoiy davlat pedagogika instituti
«Tabiatshunoslik» fakul'teti
« Geografiya va iqtisodiyot nazariyasi » kafedrası**

«Himoyaga qo'yilsin»

Kafedra mudiri _____
2012- yil «_____» _____

***“O'zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyati
va ish bilan bandlik ” mavzusidagi***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Tayyorladi : _____

Rahbar : _____

Taqrizchi : _____

Himoya sanasi :

2012yil «____» _____

DAK bahosi :

DAK xulosasi :

Navoiy-2012 yil

Davlat attestasiya komissiyasining

R A I S I G A

Navoiy Davlat pedagogika instituti Tabiatshunoslik fakul'teti kunduzgi bo'lim IV ko'rs talabasi Xudaykulov Maksud Olimovichning ***“O'zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyati va ish bilan bandlik ”*** mavzusidagi Malakaviy bitiruv ishi himoya qilish uchun yuboriladi.

Reyting qaydnomasidan ko'chirma, malakaviy bitiruv ishi rahbarining muloxazasi, kafedraning ishni himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi, taqrizlar ilova qilinadi.

Fakul'tet dekani:

b.f.n. Kushakov.A.

Navoiy Davlat pedagogika instituti

«Iqtisodiyot nazariyasi» Malakaviy bitiruv ishi xaqidagi

X U L O S A S I.

IV ko'rs «B» guruhi talabasi Xudaykulov Maksud Olimovichning ***“O'zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyati va ish bilan bandlik ”*** mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi kafedra yig'ilishida muhokama qilingan va Davlat attestasiya komissiyasiga tavsiya etiladi.

Kafedra mudiri:

dots. Raxmatov. Yu.

Navoiy davlat pedagogika instituti
«Tabiatshunoslik» fakul'teti

«Geografiya va iqtisodiyot nazariyasi» kafedrası
2012 yil _____ may № _____ majlis bayonnomasidan

K U C H I R M A

Qatnashdilar: kafedraning barcha professor-o'qituvchilari.

K U N T A R T I B I:

1. 2011-2012 o'quv yili geografiya ta'lim yo'nalishi bakalavr darajasi bo'yicha yozilgan bitiruv malakaviy ishlar muhokamasi va ularni himoyaga tavsiya qilish to'g'risida.

E S h I T I L D I:

1. Bitiruvchi__ Xudaykulov Maksud Olimovichning mavzusi ***“O'zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyati va ish bilan bandlik ”***

Ilmiy rahbar: : **O'rakov T.M.**

Bitiruv malakaviy ishi Davlat ta'lim standartlari va dasturlari talablariga mohiyat va mazmun xajmi jihatdan mos keladi.

Qaror qilindi:

2. Bitiruvchi Xudaykulov Maksud Olimovichning ***“O'zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyati va ish bilan bandlik ”*** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Davlat Attestatsiya Komissiyasiga himoya uchun tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

dots. Raxmatov. Yu.

Oliy o'quv yurti: Navoiy davlat pedagogika instituti

**«Tabiatshunoslik» fakul'teti_« Geografiya va iqtisodiyot
nazariyasi »**

Kafedrasi «Geografiya va IBA» yo'nalishi 4-A ko'rs guruhi

Tasdiqlayman _____
Kaf.mudiri _____
2012__ yil _____ sana

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Xudaykulov Maksud Olimovich

1.Bitiruv ishining mavzusi ***“O'zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyati va ish bilan bandlik ”***

« _____ » _____ 20 ____ y. kafedra majlisida ma'qullangan.

2. Bitiruv ishni topshirish muddati _____

3.Bitiruv ishni bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar _____

4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ruyxati)

5. Chizma ishlar ruyxati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi)

6. Bitiruv ishi bo'yicha maslaxatchi (lar)

№ T r	Bo'lim mavzusi	Maslaxatchi o'qituvchi F.i.sh	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi

7. Bitiruv bajarish rejasi

№ T r	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi

Bitiruv ishi rahbari: **O'rakov T.M.**

(familiyasi, ismi, sharifi)

imzo

Topshiriqni bajarishga oldim: **Xudaykulov Maksud**

Familiyasi,ismi,sharifi)

imzo

topshiriq berilgan sana 20__y

**Navoiy Davlat Pedagogika instituti “Tabiatshunoslik” fakulteti «Geografiya
va iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasining**

2- son yigilishi

b a y o n n o m a s i d a n

Ko’chirma

201__y, ____ soat 14-00
Navoiy shahri,

Rais - kaf.mudiri, dats.Y.B.Raxmatov

Kotiba – G.Norquvvatova

«Geografiya va Iqtisodiyot
nazariyasi»

Kafedra 207-xona

Qatnashuvchilar: dotsentlar:Kalonov B.X.
Zoyirov Z.X., S.A.Abdullayev.,Sharifjonova
G.Sh., Murodova N.Q.,
katta o’qituvchilar: Shodiyev .S.Abdiyeva.Z.
O’rinov .B. Tuxtayeva .M,Qodirova .M, Norov
.SH,Hasanov.SH, Hotamova G.Q.,
o’qituvchilar: O’rakov T, Ro’ziyev .I,
Bo’ronov.Y,Jonuzoqov.A, Muhammadiyeva.N,

K U N T A R T I B I:

3.1. “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo’nalishining bitiruvchi ko’rsi talabalari uchun bitiruv-malakaviy ishlari mavzularini va ilmiy rahbarlarni tasdiqlash to’g’risida.

3.1.- masala buyicha,

Raxmatov Y.B- Bitiruv malakaviy ishi talaba olgan bilimlarini umumlashtiruvchi, yakuniy faoliyatdir. Bu ishga rahbarlik qilish ham o’qituvchidan katta mas’uliyat talab qiladi. Kafedrada “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo’nalishi 4- ko’rs talabalariga kafedraning eng tajribali va ilmiy salohiyati yuqori professor-o’qituvchilari rahbarlik qilishi maqsadga muvofiq.Talabalar tomonidan tanlangan ilmiy mavzular va ularning rahbarlari atroflicha o’rganib chiqildi va kafedrada bir necha marta muhokama qilindi.BMI yozadigan talaba, tanlangan mavzusi va ilmiy rahbari haqida ma’lumot ilova qilinadi..

Qaror qilindi:

3.1. Talaba Saidaxmedov Obidning “Iqtisodiyot yunalishidagi kasb-hunar kollejlari maxsus iqtisodiy fanlarni o’qitish metodikasi ”.mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga o’qituvchi: O’rakov T.M. rahbar etib tayinlansin.

**Kafedra mudiri : dats.
Kotiba:**

**Y.B.Raxmatov
G.Norquvvatova**

Mundarija

Mavzu: “O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyati va ish bilan bandlik”

№		betlar
1	Kirish	1-4
	1-bob: Tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishning shart sharoitlari.	5
1.1	Tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanish tarixi.	5-20
1.2	Tadbirkorlik tushunchasi, mohiyati va uni rivojlanishi uchun shart-sharoitlar.	21-23
	2-bob: Tadbirkorlikning davlat tomonidan qullab quvvatlanishi va boshqarilishi.	24
2.1	Tadbirkorlikni har tamonlama qullab quvvatlash zarurligi.	24-30
2.2	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qullab-quvvatlash dasturlari.	30-33
2.3	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojida infratuzilmalar urni,ish bilan bandlik	33-43
	3-bob: Mulk va tadbirkorlik shakllanishining iqtisodiy yillari.	44
3.1	Mulk shakllarining turlari va tarkibi.	44-46
3.2	Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni	46-47
3.3	Tadbirkorlik shakllari va raqobatning kuchayishi.	47-56
	Xulosa va takliflar	57-62
	O‘rganilgan va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	63
	Ilovalar	64-65

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti biznes va tadbirkorlikka asoslangan iqtisodiyotdir.

Sungi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikka keng yul berilishi tufayli mulkchilikning turli shaklida asoslangan firmalar, korxonalar soni ortib bormokda. Yirik xorijiy investorlar bilan teng sherikchilik asosida ish boshlagan qushma korxonalar soni ortib bormokda

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan tadbirkorlikning huquqiy ijtimoiy, iqtisodiy asoslari yaratilgan va takomillashtirilib bormokda. Anikrok qilib aytadigan bo'lsak turli mulk shakllarining tengligi konstitutsion tartibda belgilanishi va shu asosda «Tadbirkorlik to'g'risidagi» qonunning qabo'l qilinishi yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati firmalar, kichik va xususiy korxonalar tashkil etish xamda ularning rivojlantirishning huquqiy bazasi sifatida ish bilarmonlar uchun keng yul ochib berdi.

«Mulk to'g'risidagi», «Davlat korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi» korxonalar tadbirkorlik faoliyatining erkinligi kafolatlari to'g'risidagi qonunlar va boshqa huquqiy xujjatlarning kuchga kiritilishi kichik biznes xamda xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratilganligidan dalolat beradi.

Amalga oshirgan tadbirkorlar sarmoyasi ularoq xozirda yalpi ichki maxsulotning 64,0 foizi kichik biznes korxonalari ulushiga to'g'ri kelmokda, jumladan sanoat tormogida 19,6 foizga, qishloq xujaligida 97,9 foizga, ko'rilishda 52.3 foizga, chakana savdoda 50.5 foizga va xizmatlar ko'rsatish soxasida 47.7 foizga teng bo'ldi.

Bu ko'rsatgich rivojlanib borayotgan davlatimiz uchun yaxshi ko'rsatgich xisoblanadi. Bugungi kunda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish natijasida iqtisodiyotda kichik biznes xisobiga amalga oshirilgan mamlakatimizda yalpi ichki maxsulotning usish surati tadbirkorlar samarasi ularoq, 2011 yilda mamlakatimizda yalpi ichki maxsulotning usish surati kutilganidek amalda 8,3 foizni tashkil etdi. 2000-2011 yillar maboynida yalpi ichki maxsulotning xajmi 2,1 barobar oshdi. Mas'ko'r ko'rsatgich buyicha O'zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan malakatlari qatoridan joy oldi. Utgan yili sanoat ishlab chiqarilishi

6,3 foiz, qishloq xujaligi maxsulotlari etishtirish 6,6 foiz, chakana savdo aylanmasi 16,4 foiz va axoliga pullik xizmatlar ko'rsatish 16,1 foizga barqaror yukori suratlardan bilan usdi,

Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat uzgarishlarini birgina misolda ya'ni 2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki maxsulotining bor-yugi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yil bu ko'rsatgich 24,1 foizga etganidan yakkol ko'rish mumkin.

Jumladan:

Sanoat korxonalari ishlab chiqarishning 16,6 foizi, yalpi qishloq xujaligi maxsulotlarining 76,8 foizi, chakana savdo aylanmasining 45,5 foizi, axoliga pullik xizmat ko'rsatishning 45,7 foizi to'g'ri kelgan.

Xozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan va jamiyatning rivojlanishida aloxida urin egallaydi. Ushbu soxadagi eng katta yutugimiz yalpi ichki maxsulot tarkibida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi kupaygani xamda malakat iqtisodiyotni ulushining roli sezilarli darajada namoyon bo'lmokda

2012 yilning 1-aprel xolatiga "Mikrokredit banki tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qullab-quvvatlash uchun jami 72,8 milliard sum mikdorida kreditlar berildi.

Kursatilgan mikromoliyaviy xizmatlar xajmi 41,3 milliard sumni tashkil qiladi. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari uchun biznes faoliyatini yo'lga kuyishligi uchun 1,4 milliard sum iqtisodiy kreditlar berildi.

Tadbirkor ayollarning investitsiyaviy loyixalarni moliyalashtirishga 10,5 milliard so'm sarflandi va buning evaziga 5972 ta ish urinlari tashkil qilindi.

Oilaviy biznesga 5,4 milliard so'm berilgan bulib, utgan yildagiga nisbatan 1,2 baroboriga oshirilib, 6,8 milliard so'mga yetkazish muljallangan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida muxum urin egallagan kuplab sanoat va ishlab chiqarish korxonalari joylashgan Navoiy shaxrida xam "kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili"da yukoridagi talablardan kelib chikgan xolda etirofli ishlar amalga oshirildi.

2011 yilning etti oyida shaxarda 4450 ta ish urni yaratilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 427 tasi yangi ishlab chiqarish ob'ektlarni ishga tushurish, majud korxonalarni kengaytirish xamda rekonstrutsiya qilish xisobiga to'g'ri keladi.

Shuningdek xususiy tadbirkorlikni qullab quvvatlash evaziga mikrofirmalarni tashkil etish xisobiga 215 ta yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 540 ta, kasanachilikni rivojlantirish evaziga 707 ta ishlab chiqarish ijtimoiy va bozor infrotuzilmasini

shakllantirish natijasida 422 ta , ishlamayotgan korxonalarni faoliyatini tiklash xisobiga 139 ta yangi ish urni yaratildi.

va masko'r yunalishlarda 4659 ta ish urni tashkil etilib, shuncha nafar axolii doimiy ish urniga ega bo'ldi.

Keyingi yillarda davlat institutlari bilan birgalikda bozor infratuzilmasi bank va moliyaviy tuzilmaning yangi institutlari vujud keldi va rivojlanmokda.

Bo'lar sugo'rta agentliklari, konsalting va auditorlik firmalari, lizing kompaniyalari, birjalar, dexkonva fermer xujaliklari uyushmasi shu kabilardir.

Kichik biznesni moliyaviy jixatdan qullab quvvatlash tijorat banklarining uz xisobidagi mablaglaridan va byudjetdan tashkari fonlar xamda xalkaro tashkilotlarning kredit liniyalari orqali amalga oshirilmokda.

Xozirda Respublikamizda 31 ta aktsiadorlik tijorat banklari faoliyat ko'rsatmokda. Ular viloyatlarda uz filiallariga ega.

Kichik biznes va tadbirkorlikni kreditlash uchun ular tomonidan ajratilgan mablaglar Respublikamiz buyicha 2010 yilning oxirida 85,1 foizini tashkil etdi. 2000 yilning oxiridagi 35,0 foizdan, 2010 yilning oxirida 75,2 foizga usdi. Utgan yil davomida kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan kreditlar xajmi 1,4 barobar kupaydi va 2 trillion 700 milliard sumni tashkil etdi. Jumladan mikrokreditlar xajmi 485 milliard sumdan ortib, bu ko'rsatgich 2009 yilga nisbatan 1,5 barobar kupaydi.

2011 yilda banklarning kapitallashuvi ularning barqarorligi likvidligini yanada mustaxkamlashga karatilgan izchil va anik maksadli chora tadbirlar amalga oshirildi

Oxirgi besh yil davomida mamlakatimiz bank sektori kapitalining etarlilik darajasi bank nazorati buyicha Bazel kumitasi tomonidan 8 foiz etib belgilangan. Xalkaro miyo'rdan 3 barobar kup bo'lgan miyo'riy darajani tashkil etmokda.

Agar 2010 yilda mamlakatimizning 15 ta tijorat banki «barqaror» reytingini olgan bo'lsa ularning soni hozirgi kunda 23 taga etdi. Bu banklarning aktivlari yurtimiz bank tizimi umumiy aktivlarining 98 foizini tashkil etmokda. Shu manoda 2011 yilda depozitlarga 18 trillion sumdan ortik utgan yilga nisbatan 36,3 foiz kup mablag jalb qilingan, jumladan axoli depozitlari 38,8 foizga oshgan.

Banklarning kredit partfeli tarkibi sifat jixatidan tubdan uzgarmokda. Agar 2000 yilda kredit portfelining 54 foizi tashki karzlardan shakllantirilgan bo'lsa 2011 yilda uning 85,3 foizi ichki manbalar, yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari xisobidan shakllantirilgan. Bu esa uz navbatida iqtisodiyotimiz sektorlariga investitsiya kiritish va shuning xisobidan tarkakkiyotimizn ta'minlashda ichki imkoniyatlarimiz tobora ortib borayotganining dalilidir.

Xususan 2011 yilda solik yuki 1991 yil bilan solishtirilganda yalpi ichki maxsulotga nibatan qarib 2 barobar kamayib. 41,2 foizdan 22,0 foizga tushganini kayd etish zarur. 2011 yilda mikrofirmalar kichik korxonalar uchun yagona solik tulovi stavkasining 7,0 foizdan 6,0 foizga kamaytirilishi xujalik yurituvchi sub'ektlar investitsiya faoliyatinig kengayishiga xizmat kildi. ning natijasida qarib 80 milliard 300 million summ mablagni birinchi navbatda ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yunaltirish imkoni paydo bo'ldi.

Tadbirkorlik sub'ektlarini soddalashtirilgan solikka tortish tizimi joriy etilgandan buyon ya'ni 2005 -2010 yillar davomidagi xolatini statistik ma'lumotlar asosida taxlil etish orqali quyidagi natijalarni ko'rishimiz mumkin.

Soddalashtirilgan solik tizimi asosida solik tulovchilar tomonidan byudjetga tushadigan solik tushumini 2005 yilda kichik biznes sub'ektlari tomonidan 61,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 44,8 foizni tashkil etdi.

«Adolat» gazetasi 2012 yil 20-yanvar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yunalishlariga bagishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasidan olindi.
«Dustlik bayrogi» gazetasi 2011 yil 30-avgust

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tulanidigan kat'iy belgilangan soliklardan tushgan tushum esa 14,7 foizdan 17,3 foizga oshganligi tendentsiyasini ko'rish mumkin. Natijada mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan tulanadigan yagona solik tulovi buyicha tushum kamayib borganligini, savdo va umumiy ovkatlanish xamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tulanidigan kat'iy belgilangan soliklardan tushgan tushumning ortib borish tendentsiyasi kuzatildi.

«Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» davlat dasturida kichik biznes sub'ektlarini tashkil etish, maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalarni

Rivojlantirish, oilaviy tadbirkorlikni, milliy xunarmanchilikni shakllantirish masalasi buyicha bir kancha ko'rsatmalar belgilab berilgan.

Ushbu chora tadbirlarni amalga oshirish jarayonida yangi ish urinlarini yaratish orqali axolii bandligini ta'minlash xam nazarda tutilgan.

Xech kimga sir emas, mamlakatimizning uziga xos xususiyatlari, avvalo, demokratik jixatlariga ko'ra, axoli bandligi masalalari uzining dolzarbligi va utkirligini saklab olmokda desak, xech qanday mubolaga bo'lmaydi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tamonidan ma'kullangan 2012 yilda ish urinlarini yaratish va axoli bandligini ta'minlash dasturi barchamizning avvalo, Korakalpogiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shaxar xokimliklarining diqqat markazida turishi zarur.

Ushbu dasturga binoan 967 mingdan ortik ish urni yaratish, ularning kariyb 600 mingini qishloq joylarida tashkil etish kuzda tutilmokda.

Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish xisobidan 480 mingdan ziyod kishilar ishga joylashtirish, birinchi navbatda korxonalar bilan xamkorlikda mexnat sharnomalari asosida kasanachilikning turli shakllarini, shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 210 mingdan ortik kishining bandiligini ta'minlash rejalashtirilgan.

2012 yilda karayb 75 mingta yangi ish urinlari tashkil etish kuzda tutilmokda.

Bu yil yurtimizda 516 ming nafardan ziyod yigitqizlar kollej va litseylarni tamomlaydi. Ularning ishga joylashishi xozirdanok anik belgilab olish nazoratga olingan.

Yukorida tasdiqlangan yutuk va muommalar kamchiliklarni imkon kadar urganish va fikr muloxazalarimizni bildirish maksadida “kichik biznes faoliyatining iqtisodiy rivojlanishi va ish bilan bandlik” mavzusini tanladik.

Mavzu: kirish kismi, 3-bob 8 bo’limdan iborat bo’lib, xulosa ,foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat.

1-bobda “Tadbirkorlik faoliyatiga tushuncha berilib, uning shakllanishi qonuniyatlari, shart sharoitlari tushuntiriladi.

2-bobda “Tadbirkorlik faoliyatining O’zbekistonda shakllanishining davlat tomonidan qullab quvvatlanishi dasturlari tadbirkorlik rivojlanishida infrotuzilmalarning axamiyati yoritiladi.

3-bobda O’zbekistonda mulk monopoliyasining tugatilishi va kup mulkchilikning barpo bo’lishi munosabati bilan kirish va xususiy tadbirkorlikning rivojlanayotganligi taxlil qilinadi va xozirgi paytda soxalarda va xududlarda tadbirkorlik faoliyatining ahvoli tekshiriladi.

Xulosa: mavzuga oid fikr va muloxazalar xar bir bobning oxrida qisqa xulosa shaklida berilgan.

I-bob: Tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishning shart sharoitlari

1.1.Tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanish tarixi.

Barcha yangi mustakil davlatlarda isloxotlardan oldingi davrda mulkchilikning davlat shakli ustunlik qilgan. Xo'jalikning davlat sektorida mehnatkashlar umumiy sonining 4G'5 qismi, kooperativlarda 14-15% (bo'lardan yarimidan ko'pi kolxozlarda), xususiy sektorda 3%ga yakini band bo'lgan. Saksoninchi yillarning ikkinchi yarimida xo'jalikning kooperativ sektorini yaratish ijarani rivojlantirishga xarakat qilingan.

Bu xarakat bozor infrato'zilasini rivojlanmaganligi davlat mulkchiligining hukmronligi, xo'jalik yuritishning yangicha shakllarini davlat sektoriga karamligi, xo'jalik qonunlarining noanikligi va bir kator sabablar tufayli natijasiz bo'lgan.

Korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish iqtisodiy isloxotlarning etakchi buqinidir. Xususiylashtirish natijasida demokratik jamiyatning ijtimoiy zaminini tashkil qiluvchi xususiy mulkchilik katlami shakllanib bordi.

Iqtisodiyot fanida tadbirkorlik faoliyatiga doir dastlabki tadqiqotlar XVIII asrda R. Kontilon, A. Tyurgo, F. Kene, A. Smit va J.B. Sei asarlarida amalga oshirila boshlandi. Birok xozirga kadar jamoatchilik fikrida "tadbirkorlik" tushunchasining ko'p ma'noliligi saklanib qolmoqda. Ilmiy adabiyotda ushbu tushuncha qaqida ko'pincha bu favkulodda xodisaning iqtisodiy, tashkiliy va ruxiy tavsiflari (turli-tuman karashlar) tuplashidan iborat xar xil tasavvurlar mavjud.

Xorijiy adabiyotlarda biznes ta'rifini ko'p turlari mavjuddir. Inson jamiyatining butun rivojlanish tarixi u yoki bu jixatdan doimo biznes bilan boqliq bo'lgan.

Dastlabki boskichlarda tadbirkorlikning eng muqim alomati biron bir shaxs-tadbirkor faoliyatining foydali yoki zararliligini belgilovchi noaniklik omili qisoblangan. Tadbirkorlikning ijtimoiy - iqtisodiy vazifasi turli bozorlarda talab bilan taklif orasida muvozanat urnatishga doir takkomillik faoliyatidan iborat deb tan olingan.

Keyinchalik “sarmoya egasi” va “Tadbirkor” tushunchalari bir-biridan farklana boshlandi. Tadbirkor sarmoyaning muomalada yuritishni, ko'payib borishini ta'minlaydi va bu borada u venchur sarmoyador, ya'ni jalb qilingan moliyaviy mablag'larni ustalik bilan tasarruf etuvchi shaxs sifatida ishni yuritib yuborishga o'z qoyalari, bilimi va kunikmalarini tatbik qilib, ko'p foyda olish maksadida usha mablag'larni tavakkali ishlarga sarflaydi.

O'zbekistonda va MDXda biznes qaqidagi maqolalar, adabiyotlar 60-yillarning o'rtalarida paydo bo'ldi. Xususiy mulkchilik esa usha davrda bizning mafko'ramiz uchun butunlay yod narsa edi. Lekin bizda biznesni fan tarikasida urganish fakatgina 90-yillarning boshlarida bozor munosabatlariga asta-sekin o'tish bilan boshlanadi.

“Biznes” - so'zi inglizcha so'z bo'lib, u tadbirkorlik faoliyati eki boshqacha so'z bilan aytganda kishilarni foyda olishga karatilgan tadbirkorlik faoliyatidir.

Xorijiy adabiyotlarda biznes ta'rifini ko'p turlari mavjuddir. Inson jamiyatining butun rivojlanish tarixi u yoki bu jixatdan doimo biznes bilan boqliq bo'lgan.

Biznesmen (tadbirkorlik) so'zi birinchi marotaba Angliya iqtisodietida XVIII asrda paydo bo'lib, u “Mulk egasi” degan ma'noni bildiradi. Jumladan, Adam Smit tadbirkorni mulk egasi sifatida ta'riflab, uni foyda olish uchun qandaydir tijorat qoyasini amalga oshirish maksadida iqtisodiy tavakkalchilikka boradigan kishidir, - deb ta'kidlaydi. Tadbirkorni o'zi, o'z ishini rejalashtiradi, ishlab chiqarishni tashkil etadi, maqsulotni sotadi va olgan daromadiga o'zi xujayinlik kiladi.

Biznes- bu avvalo ishlab chiqarishni tashkil etish, iqtisodiy faoliyat va munosabatlar, hayotni o'zi so'ngra esa pul ishlash demakdir. Biznes- bu xorijiy so'zdir. U butun dunyo bo'yichacha tarkalgandir, undan barcha mamlakatlarda foydalanadilar. O'zbek tilida esa biznes so'zi tadbirkorlik, biznesmen esa tadbirkor demakdir. O'zbekcha so'z xorijiy so'zga to'g'ri keladi, lekin unga kushimcha ma'no qam beradi. Bu so'zlarni ortida “ish” ya'ni ish bilan shugullanish eki korxona tashkil qilish etadi. Shunday qilib, biznes - bu korxona tashkil qilish demakdir (sanoat korxonasi, savdo dukoni, xizmat ko'rsatish korxonasi, auditorlik

kontorasi, advokat idorasi, bank va x.k.). Demak, biz bu yuk narsadan pul qilish emas, balki murakkab ishlab chiqarishni eki xizmat ko'rsatishni tashkil etish demakdir.

Tadbirkorlik - bu doimo o'z ishining fidoiysi, bilimdonidir. Tadbirkorlik uchun o'qish kerak, nafakat dastlabki paytlarda, balki tadbirkor bir umir o'qishi, izlanishda bo'lishi kerak.

Tadbirkor nimalarni bilishi va qilishi kerakq U eng avvalo, tadbirkorlik faoliyatini qanday amalga oshirishni, qanday sharoitda amaliy xarakat qilishni, tadbirkor oldida uchraydigan tusiklarni xal qilish yullarini va qanday yutuklarga erishishni bilishi kerak. Tadbirkor - ishlab chiqarishni tashkil etishni, qamda maqsulotni sotishni bilishi kerak. U bozor munosabatlari sharoitida yuzaga keladigan anik sharoitlarni baxolashni va to'g'ri yul tanlashni bilishi kerak. qech kim, qech qachon tadbirkorga nima qilishni urgatmay va oqir paytdlarda yordamga kelmaydi. Xar bir tadbirkor fakat o'z kuchiga, bilimiga va zakovatiga ishonishi va suyanishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyatini aktsiyadorlik mulki shaklida qam, jamoa mulki shaklida qam, xususiy (yakka) mulk shaklida qam amalga oshirish mumkin. Birok aktsiyadorlik mulki shakli va jamoa mulki shakli doirasida uni tashabbus ko'rsatish, qarorlar qabo'l qilish va o'z faoliyati uchun javobgarlik masalalarida xodimlar va menejerlarga xususiy mulk egasi imkoniyatlari qanchalik darajada berilishiga boqliq ravishda amalga oshirish mumkin.

Savdo, maishiy xizmat, maxalliy sanoat, ijtimoiy soqalar korxonalarini davlatnikidan xususiyyga aylantirish jarayoni ancha kiyin utdi. Bu erda avval xususiylashtirish yiriklashtirilgan ishlab chiqarish bo'limlari bo'yichacha bajarildi, ularning zaminida ochiq turdagi xissadorlik jamiyatlari to'zildi.

Ammo hayot bu jamiyatlarni kichiklashtirishni takazo kiladi, shu maksadda unga kiruvchi ayrim tarkibiy birgaliklarga katta mustakillik berildi. Natijada O'zbeksavdo ,O'zmaishiyittifok, O'zbekbirlashuv kabi tarmoklar bo'yichacha 13 mingga yakin xususiy korxonalar tashkil etildi .

1995-1999 yillarda kichik va xususiy korxonalar tashkil qilishga eng katta ahamiyat berildi. Ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab utganidek, "...qishloq joylarida ixcham ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ragbatlantirish qisobiga axolining ish bilan bandligini ta'minlash siyosatini faol amalga oshirmoqchimiz". 1.

Mamlakatimizda bu siyosatni amalga oshirishda asosan tadbirkorlikni rivojlantirishni taqozo etadi.

Tadbirkorlik shakllari

O'zbekiston Respublikasida «Tadbirkorlik to'g'risida» gi qonuninng 5-moddasiga binoan tadbirkorlikning quyidagi shakllari mavjud:

Yakka tartibdagi tadbirkorlik,

Xususiy tadbirkorlik,

Jamoa tadbirkorligi.

Aralash tadbirkorlik,

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning eng oddiy shakli bo'lib, uni tashkil qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 14 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to'g'risidagi Nizom» bilan belgilanadi. Ushbu nizomga muvofiq yakka tadbirkor o'z faoliyatini yuridik shaxs tashkil qilmay amalga oshirishi mumkin. Yakka tartibdagi tadbirkorlar odatda mayda ishlab chiqarish bilan shug'ullanadilar.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik o'z navbatida ikki turga bo'lina-di:

- shaxsiy tadbirkorlik;
- birgalikdagi tadbirkorlik,

Shaxsiy tadbirkorlik tushunchasi «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning 15-moddasida quyidagicha bayon etiladi: «Shaxsiy tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkorlarning o'zi tomonidan mulk huquqida, shuningdek, mulkka egalik qilish va (yoki) undan

foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga mulkiy huquq tufayli o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi».

Ushbu qonunning 16-moddasiga binoan birgalikdagi tadbirkorlikka quyidagilar kiradi:

- er-xotinning umumiy mol-mulki negizida amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik;
- dehqon xo'jaligining umumiy birgalikdagi mulki negizida amalga oshiriladigan dehqon xo'jaligi;
- o'zlariga umumiy ulushi mulk huquqida tegishli bo'lgan umumiy mulk negizida yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshiradigan shirkat xo'jaligi.

Yuridik shaxs tashkil qilmay, o'z faoliyatini amalga oshiradigan tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxsga davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnoma beriladi va u jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish reestrda qayd qilinadi. Ushbu guvohnoma bankda hisob-kitob varag'i ochish, soliq organlaridan ro'yxatdan o'tish, muhr va boshqa rekvizitlarni tayyorlash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistan Respublikasida «Xususiy tadbirkorlik to'g'risidagi Nizom»da xususiy tadbirkorlik faoliyatiga quyidagicha ta'rif berilgan:


Xususiy tadbirkorlik – bu fuqarolar (alohida fuqaro) tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik asosida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatidir.

Xususiy tadbirkorlikning yakka tartibda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlikdan farqi shundaki, bu erda faoliyat ko'rsatuvchilar o'z faoliyatini yollanma ishchi kuchi yordamida olib boradilar. Ular yuridik shaxs sifatida ish ko'radilar va o'z korxonalarini davlat ro'yxatidan o'tkazishga majburlar.

Jamoa tadbirkorligi – bu bir guruh fuqarolarning o'zlariga ma'qul bo'lgan mulkchilik shakllarida jamoalarga birlashib, jamoa korxonalarini tashkil qilishlari va shu asosda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlaridir.

Jamoa tadbirkorligi faoliyati firmalar faoliyatida o'z ifodasini topadi. Firma – muayyan turdagi mahsulot ishlab chiqarishga va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan, bozordagi talab va taklifga qarab ish tutadigan, iqtisodiy jihatdan erkin va mustaqil korxonadir.

Firmalarning turlari juda ko'p, ularni chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin (4-chizma).



Xususiy firma deganda ayrim shaxs yoki oilaga tegishli bo'lgan, yakka xususiy mulkka asoslanib faoliyat ko'rsatadigan korxona tushuniladi.

Shirkat firma bir necha sohibning mulkini birlashtirish va tadbirkorlikdan olinadigan foydani baham ko'rishga asoslangan sherik-chilik korxonasidir.

Shirkat firmalarining ikki turi mavjud:

- mas'uliyati cheklanmagan jamiyatlar;
- mas'uliyati cheklangan jamiyatlar.

Mas'uliyati cheklanmagan jamiyatlar ikki yoki undan ko'proq kishilar-ning mulki asosida yuzaga keladi. Sheriklarning dastlabki mulki firmaning ustav kapitali deyiladi. Bu kapitalga har bir sherik o'z hissasini qo'shadi. Ular ustav fondiga qancha pul qo'ysa, shu hissaga binoan foyda olishadi. Bordi-yu firma sinsa, sheriklar zararni hamjihatlikda ko'taradi, ya'ni bir sherik boshqasining javobgarligini ham zimmasiga oladi.

Shirkat a'zolari o'rtasida tuzilgan bitim shirkatning huquqiy asosi hisoblanadi. Bu bitim quyidagi bandlarni o'z ichiga oladi:

- har bir hamkorning vakolatlari;
- bitimning muddati;
- har bir vakilning umumiy ishga qo'shgan ulushi;
- daromadlar va yuz berishi mumkin bo'lgan zararlarni o'zaro bo'lish yo'l-yo'riqlari;
- uyushma mablag'laridan har bir hamkorning olishi mumkin bo'lgan aniq va belgilangan pul hajmi;
- uyushmada amalga oshirish zarur bo'ladigan moliyaviy ishlar tartibi;
- yangi hamkorni qabo'l qilish tartibi;
- shirkatni tarqatib yuborish tartibi.

Shirkatga davlat, kooperativ, jamoa va boshqa tashkilotlar, shuningdek, xorijiy tashkilotlar va fuqarolar ham qonun yo'l qo'ygan hollarda a'zo bo'lishi mumkin.

Mas'uliyati cheklangan shirkat firmalarning ustav fondi faqat ta'sischilar mablag' (aktsiya)lari hisobiga barpo etiladi. Jamiyat qatnashchilari o'zlarining qo'shgan ulushlari doirasida javobgar bo'ladi. Shirkat o'z faoliyati uchun ustav fondi miqdorida javobgar hisoblanadi.

Mas'uliyati cheklangan shirkat firmalar nomiga «limited» so'zi qo'shiladi, bu inglizcha so'z bo'lib, «cheklangan» ma'nosini bildiradi.

Mas'uliyati cheklangan firmaning bir qator turlari mavjud. Ularning eng keng tarqalgan shakli aktsiyadorlik jamiyatlari va korporatsiyalardir. Aktsiyadorlik jamiyatlarini tuzish va faoliyatini tashkil qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining «Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyador-larning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunda ifodalangan. Ushbu qonunning 2-moddasiga muvofiq:

Aktsiyadorlik jamiyati – bu jismoniy shaxslar kapitallarining birlashuvi bo'lib, u aktsiyalar chiqarish yo'li bilan tashkil etiladi.

Jamiyat jamlangan kapitaliga qarab maxsus qimmatli qog'oz – aktsiya chiqaradi. Aktsiyani sotib olganlar hissadorlarga aylanishadi va foydadan o'z hissasi – divedendni olib turadilar. Aktsiyadorlik jamiyati o'z majburiyat-lari bo'yicha o'ziga tegishli butun mol-mulk bilan javobgar hisoblanadi. Aktsiyadorlar jamiyati majburiyatlari bo'yicha javobgar emas va uning faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun faqat o'zlariga tegishli aktsiyalar qiymati doirasida javobgar hisoblanadi.

Aktsiyadorlik jamiyatining ustav fondi aktsiyadorlar sotib olgan aktsiyalarning nominal qiymatlaridan tashkil topadi. Jamiyat chiqaradigan barcha aktsiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi lozim. Aktsiya bo'linmas hisoblanadi.

Aktsiyadorlik jamiyatini ta'sis etishda uning jami aktsiyalari ta'sischilar orasida tarqatilishi kerak.

Aktsiya fond birjalarida muomalada bo'ladi, bir shaxsdan boshqasiga erkin o'tadi va aktsiyalar uchun uning hissasi to'g'risidagi hujjatt hisoblanadi. Aktsiyadorlik jamiyatini:

- aktsiyadorning umumiy majlisi;
- kuzatuv kengashi;
- ijro organi boshqaradi.

Aktsiyadorlarning umumiy majlisi oliy boshqaruv organi hisoblanadi. Agar qonun hujjatlari boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, u aktsiyadorlik jamiyati faoliyati bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilish huquqiga ega. Aktsiyadorlik jamiyatining kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatida umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Aktsiyadorlik jamiyatining joriy (kundalik) faoliyatiga yagona ijro organi (direktor) yoki kollegial (maslahat) ijro organi (boshqaruv, direksiya) rahbarlik qilishi mumkin.

Aktsiyadorlik shaklidagi tadbirkorlikning quyidagi afzalliklari bor:

- aktsiyadorlik jamiyati – bu biznesning ko'proq demokratik shaklidir. Unga xohlagan kishi bevosita yoki obuna bo'lish yo'li bilan aktsiyani sotib olib, a'zo bo'lishi va mulk egasiga aylanishi mumkin;

- vaqtincha bekor turgan sarmoyalar markazlashuviga erishiladi;
- nisbatan samarali sohalarga kapital oqimini tashkil qilish imkoniyati tug'iladi;
- davlat mulkini xususiylashtirish imkoniyatlari kengayadi;
- moliyaviy barqarorlikka erishiladi;
- tadbirkorlikda tavakkalchilik xavfi kamayadi (hissador o'z aksiyasi miqyosida ziyon ko'rsa, korxona egasi butun mulkidan ajraladi);
- bir vaqtning o'zida ishlab chiqaruvchilar, tovar etkazib beruvchi-lar, haridorlar va mahalliy davlat organlari manfaatlarining o'zaro muvofiqlashuviga erishiladi.

Aktsiyadorlik jamiyati ochiq va yopiq turda bo'lishi mumkin.

Ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati – bu aktsiyadorlari o'zlariga tegishli aksiyalarni boshqa aktsiyadorlarning rozilgisiz erkin tasarruf qila oladigan jamiyat. U chiqaradigan aksiyalariga ochiq obuna o'tkazish va ularni erkin sotish huquqiga ega. Ta'sischilarning eng kam soni ham cheklanmagan. Ochiq turdagi AJ uchun ustav fondining eng kichik miqdori AJ ro'yxatidan o'tkazilgan sanada qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi summasining ikki yuz barobari miqdoriga teng bo'lishi kerak.

Yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati – bu aksiyalari nomlangan (egasi yozilgan) va ular faqat AJ ta'sischilari o'rtasida taqsimlangan jamiyatdir. Uning aksiyalari qimmatli qog'ozlar bozorida muomalada bo'lishi jamiyat Nizomiga binoan man etilgan yoki cheklangan bo'ladi. Yopiq turdagi AJ uchun ustav fondining eng kam miqdori – AJ ro'yxatdan o'tkazilgan sanada qonun hujjattlarida belgilangan eng kam ish haqi summasining kamida yuz barobari miqdoriga teng bo'lishi kerak.

Ochiq turdagi AJ ni boshqa turdagi jamiyatlarga aylantirish mumkin emas. Yopiq turdagi AJ esa o'z aksiyalariga ochiq obuna o'tkazish yoki ularni fond bozorida sotish uchun chiqarish yo'li bilan ochiq turdagi AJga aylanishi mumkin. Boshqa turdagi jamoa korxonalari va shirkat xo'jaligi o'z aksiyalarini chiqarish

yo'li bilan ikkala turdagi aktsiyadorlik jamiyatlarga ham aylantirilishi mumkin.

Ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati har yili ommaviy axborot vositalarida:

- yillik hisobotni;
- buxgalterlik balansini;
- foydalar va zararlar hisob varag'ini;
- jamiyat aktsiyalari emissiyalari prospektini;
- umumiy majlisni o'tkazish sanasi va joyini malum qilib turishi shart.

Aktsiyadorlik jamiyatini tashkil etish uchun quyidagilar zarur:

- jamiyatni tashkil etish va birgalikda faoliyat ko'rsatish hamda bir yoki bir necha shaxsga jamiyatni tashkil etish uchun vakolat berish to'g'risida shartnoma tuzish;

- aktsiyalarga obuna o'tkazish;
- ta'sis konferentsiyasini o'tkazish;
- jamiyat va uning aktsiyalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Jamiyatni tashkil etishdagi harajatlar shartnomaga imzo chekkan shaxslarga taqsimlanadi. Davlat mulkini xususiylashtirish orqali quyidagi usullarda AJ tashkil etilishi mumkin:

- oddiy yo'l bilan, ya'ni bunda fuqarolar yopiq yoki ochiq AJ larining ob'ektlarini auktsion orqali yoki konko'rs yo'li bilan sotib olishadi;
- davlat korxonasi mehnat jamoasi tomonidan yopiq AJ ni tashkil etadi va ma'lum yuridik shaxs tomonidan korxona sotib olinadi;
- davlat yoki ijara korxonalari ochiq AJ lariga aylantiriladi.

Barcha jamoa korxonalari uchun quyidagi umumiy jihatlar mavjud:

- nizom kapitalining tegishli bo'laklarga yoki aktsiyalarga majburiy bo'linishi;

- jamiyatning o'z majburiyatlari va faqat o'zining mulki bo'yicha cheklangan javobgarligi;

- aktsiyador (sharik)lar orasidagi o'zaro munosabatlar, daromad va

mulkni taqsimlash, korxonani boshqarish bo'yicha munosabatlar ularning kiritgan ulushlari miqdoriga qarab taqsimlanadi;

- jamiyat a'zolari uning kapitaliga o'z ulushlarini kiritishlari zarur, ammo o'z mehnatlari bilan uning faoliyatida ishtirok etishlari majburiy emas.

Aktsiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish jarayonlari «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish», «Hissadorlik jamiyatlari», «Korxonalar to'g'risida», «Qimmatli qog'ozlar bozori va fond birjalari» to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida boshqariladi.

Korporatsiya atamasi lotincha «**corporatio**» so'zidan olingan bo'lib, birlashma, hamjamiyat ma'nosini beradi. Korporatsiya yirik aktsioner jamiyatlar birlashmasi hisoblanib, bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi-larni birlashtiradi. Natijada ishlab chiqarish monopollashadi.

Korporatsiya investitsiya kapitalining markazlashuvini, ilm-fan taraqqiyotini, mahsulotning raqobatbardosh bo'lishini va uzoq hayot tsiklini ta'minlaydi. Korporatsiyalar tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi aktsioner jamiyatlarining xohish-ixtiyori bilan paydo bo'ladi. Har bir korxona faoliyatini yurgizish uchun o'z holicha turli funktsiyalarni, ya'ni:

- xom ashyo, materiallar, energiya, uskuna qidirib topish, sotib olish va texnologik takomillashtirish;

- mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqariladigan mahsulotni yangilash;

- tayyor mahsulotni sotish bo'yicha qator ishlarni bajarishi lozim bo'ladi.

Bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi bir qancha korxonalar yig'ilishib, barcha uchun umumiy bo'lgan korxonalar faoliyatini ta'minlov-chi funktsiyalarni hamma uchun bajaradigan bir idora, muassasa tuzishni rejalashtirganlar. Natijada shunday birlashma yuzaga kelganki, unda korxonalar o'z mulki va iqtisodiy mustaqilligini saqlagan holda hammalari uchun umumiy bo'lgan funktsiyalarni bajarishdan ozod bo'lganlar va shu funktsiyalarini bajarganligi uchun umumiy idora-muassasaga xaq to'laganlar.

O'z tarkibidagi aktsiyadorlik jamiyatlarni nazorat paketlarini egallash bilan korporatsiyalar xolding kompaniyalariga aylanadi.

Xolding iborasi inglizcha «holding» so'zidan olingan bo'lib, ega ma'nosini beradi.

Xolding kompaniya – bu mulk egalari tomonidan bir qancha mustaqil aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatini nazorat qilish maqsadida tashkil etilgan hissadorlik jamiyatidir. Xolding kompaniyasi tarkibiga kiruvchi aktsiyadorlik jamiyatlari «aktsiyalarining nazorat paketi» kompaniyaning ixtiyorida bo'ladi. Bundan maqsad aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatlari ustidan nazorat o'rnatish va dividendlar ko'rinishida foyda olishdir.

Xolding kompaniyalarning mohiyati shundaki, ular biror bir ishlab chiqarish vazifalarini bajarishmaydi. Ularning vazifasi – sof boshqaruvchilikdan, ya'ni ishonchli mulk egasi sifatida ularga o'z aktsiyalari yoki aktsiyalar nazorat paketini beruvchi kompaniyalarning faoliyatiga umumiy xo'jalik rahbarligini bajarishdan iboratdir. O'zbekistan Respublikasida xolding kompaniyalarning huquqiy maqomi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 12 oktyabrdagi 398-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom (xoldinglar to'g'risidagi Nizom) asosida belgilanadi. Bu Nizomga muvofiq aktivlari tarkibiga boshqa korxonalarning aktsiyalar nazorat paketi kiradigan ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati xolding hisoblanadi.

Xolding birlashgan korxonalar, ya'ni xolding aktivlari tarkibiga kiradigan, aktsiyalar paketini nazorat qiladigan korxonalar sho''ba korxonalar deb ataladi. Ular mustaqil yuridik shaxs hisoblanadi. Sho''ba korxona, ko'pincha, korxonaning rivojlanib borishi davomida bosh korxona (xolding kompaniyasi) tomonidan tashkil qilinadi.

Xoldinglar davlatga qarashli yoki xususiy bo'lishi mumkin. Davlat xoldingida aktsiyalar nazorat paketi davlat mulkiga, sho''ba korxonalar aktsiyalari esa bosh xolding kompaniyasining mulkiga aylanadi. Sho''ba korxonalar o'z majburiyatlari bo'yicha o'zlariga tegishli mulk, shu jumladan, asosiy korxona, ya'ni xoldingga tegishli aktsiyalar nazorat paketining qiymati

bilan ham javob beradi. Xolding sho''ba korxona qarzi bo'yicha uning ta'sis shartnomasida aytilgan shartlarda javobgar bo'ladi.

Xolding kompaniyalari ikki turda bo'lishi mumkin:

- moliyaviy xolding;
- aralash xolding.

Moliyaviy xolding faqat maxsus nazorat va boshqaruv maqsadlarida tuziladi. Sarmoyasining 50 foizidan ko'pini boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlari va boshqa moliyaviy aktivlar tashkil qiladigan xolding moliyaviy xolding hisoblanadi. Moliyaviy xoldinglar avktivlari tarkibiga faqat qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy aktivlar, shuningdek, xol-dingni boshqarish apparatining faoliyatini ta'minlash uchun bevosita zarur bo'lgan mol-mulk kirishi mumkin.

Moliyaviy xoldinglar faqat investitsiya faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega, faoliyatining boshqa turlari bilan shug'ullanishga ruxsat berilmaydi

Ular sho''ba korxonalarining ishlab chiqarish va tijorat faoliyatlariga aralashish huquqiga ega emas. Moliyaviy xolding vakillari faqat sho''ba korxonalarining aktsiyadorlari yig'ilishlarida qatnashishi mumkin. Ularga kuzatuv kengashi, boshqaruv va sho''ba korxonalarini boshqaradigan boshqa organlarga kirishga ruhsat berilmaydi.

Moliyaviy xoldinglar o'zlariga tegishli aktsiyalar bilan faqat tashkil qilingan qimmatli qog'ozlar bozorida, ya'ni fond birjalarida bitimlarni amalga oshiradi. Bu talabni bajarmaslik amalga oshirilgan bitimlarning bekor qilinishiga sabab bo'ladi.

Aralash xolding – nazorat va boshqaruv vazifalari bilan bir qatorda sanoat, savdo, transport, kredit-moliya va boshqa sohalarda tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug'ullanish maqsadlarida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan xolding kompaniyalari quyidagi yo'llar bilan tashkil etiladi:

- yirik korxonalarni qayta tashkil qilishda ularning tarkibiy bo'linmalarini mustaqil yuridik shaxs (sho''ba korxonalar) sifatida bunyod etish yo'li bilan;

- yuridik jihatdan mustaqil korxonalarining aktsiya paketlarini birlashtirish yo'li bilan;

- yangi aktsiyadorlik jamiyatlarini ta'sis etish yo'li bilan.

Xoldinglar monopoliyaga qarshi organning ruxsati bilan tashkil etiladi. Xoldingni tashkil etishga ruxsat olish uchun monopoliyaga qarshi organga boshqa hujjatlar bilan birga:

- nizom loyihasi;

- xoldingni tuzishga xohish xaqida bayonnoma yoki ta'sischilar shartnomasi;

- tuziladigan xoldingga kiritish uchun tavsiya qilinayotgan korxonalar ro'yxati;

- shu korxonalardan har qaysisining xo'jalik faoliyati turlari va hajmi haqidagi ma'lumotlar topshiriladi.

Agar xoldingni tuzish biron bir mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish monopoliyasiga olib keladigan bo'lsa, bunday xoldingni tuzishga ruxsat berilmaydi.

Davlat korxonalari – bu davlat mulki bo'lgan va uning nazorati ostida ishlovchi korxonalar bo'lib, ular ishlab chiqarishdagi davlat sektorini tashkil etadi, eng muhim va mas'uliyatli vazifalar (mudofaa, aloqa, energetika, transport va boshqalar)ni bajaradi.

Qo'shma (aralash) korxonalar xususiy, davlat va jamoa mulkining aralash mablag'lariga tayanadi. Aralash firmalar milliy va xorijiy kapitalga tayangan hissadorlik qoidasiga binoan tashkil topadi, foydasi shunga qarab taqsimlanadi.

Qo'shma korxona tuzishga hamkorlarni nima majbur qiladiq AQSH olimlari quyidagi omillarni keltiradilar:

- kapital harajatlar hajmining qisqarib ketishi va yangi quvvatlarni barpo etishdagi xavotirlik;

- aniq geografik bozorga o'tish;

- yangi faoliyat sohasiga o'tish;

- ishlab chiqarish sohasining bazasi yoki xom ashyo manbaini qo'lga

kiritish;

- ishlayotgan ishlab chiqarish liniyalarining kengayganligi;
- tovar yoki xizmatlarni sotishning yangi tarmoqlari paydo bo'lganligi;
- mavjud marketingning samaradorligi oshganligi;
- takrorlanib turuvchi yoki mavsumiy beqarorlikni bartaraf etish

imkoniyati;

- qo'shma korxonadagi hamkorlar yordamida ishlab chiqarish harajatlari kamaytirish imkoniyati.

Qo'shma korxonalar o'zaro manfaatdorlik negizida, hukumatlararo shartnomalar asosida tashkil qilinib, ilmiy-ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va boshqa vazifalarni echishga qaratilgan. Ular sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, savdo, fan va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida tarkib topishi mumkin.

Qo'shma korxonalar, asosan, chet el texnikasi va texnologiyasi asosida barpo etilib, maxalliy xom ashyo va ish kuchi hisobiga ishlaydi. Korxona o'zining mustaqil balansiga ega bo'ladi va xo'jalik hisobi asosida faoliyat yuritadi. Respublikamizda AQSH, Italiya, Turkiya, Frantsiya, Germaniya, Angliya, Koreya, Yaponiya kabi qator davlatlar kompaniyalari bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar qurilib, ishga tushirilgan.

Kontsern – bu ishlab chiqarish diversifikatsiyasi, ya'ni korxonalar-ning faoliyat sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi asosida tarkib topadigan yirik ko'p tarmoqli korporatsiya. Kontsern tarkibiga sanoat, transport, savdo, bank kabi tarmoqlarga tegishli, ayrim hollarda, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida joylashgan unlab va yuzlab korxonalar ixtiyoriy asoslarda kiradi. Kontsern tarkibiga kirgan korxona va tashkishyutlar orasida o'zaro korporatsiyalangan turg'un aloqalar mavjud bo'lib, ular kontsern rivoji yo'lida umumiy moliyaviy resurslardan va yagona ilmiy-texnik imkoniyatlardan mushtarak foydalanadilar.

Konsortsium – bu aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan korxonalarning muvaqqat birlashmasidir.

Konsortsium a'zolarining huquq va majburiyatlari konsortsium to'g'risidagi bitimda belgilab qo'yiladi. Qo'yilgan vazifani bajarish uchun konsortsium ishtirokchilari badallari hisobidan yagona moliyaviy va moddiy fondlar barpo etadilar, byudjet mablag'lari va davlat bankidan kreditlar oladilar. Vazifa bajarilgach, konsortsium tarqaladi. Konsortsiumlarga boshqaruv bo'yicha qo'mitalar, direktorlar kengashi kabilar boshchilik qiladi. Konsortsiumlar aviatsiya, kosmos, kompyuterlar, aloqa kabi yuksak texnologik va katta miqdordagi sarmoyali sohalarda keng tarqalgan.

Kontsessiya – bu lotincha so'zdan olingan bo'lib, ruxsat, yon berish ma'nosini anglatadi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish yoki tiklash, tabiiy boyliklarni o'zlashtirish maqsadida davlat yoki munitsipalitetga qarashli er uchastkalari, qazilma boyliklar, mol-mulk, korxonalar va boshqa xo'jalik ob'ektlarini muayyan muddatga va shartlar bilan foydalanish uchun chet ellik investorga davlat nomidan beriladigan ruxsatnoma, ular bilan tuziladigan shartnoma yoki kelishuv. Kontsessiyachilik faoliyatida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining «Kontsessiyalar to'g'risida»gi qonuni bilan tartibga solinib turiladi.

Kooperativ – bu kooperatsiyaning birlamchi bo'g'ini. **Kooperatsiya esa:**

- mehnatni tashkil etish shakllaridan biri, ko'pchilik xodimlar bir mehnat jarayonida yoki o'zaro bog'liq turli mehnat jarayonlarida hamkorlikda ishtirok etadilar;

- guruh mulkchiligiga asoslangan xo'jalik yuritish sharti;

- ma'lum bir mahsulotni o'zaro hamkorlikda tayyorlash bilan band bo'lgan korxonalar o'rtasidagi uzoq muddatli va barqaror aloqalar shakli.

Kooperativ – bu yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan, xo'jalik yurituvchi sub'ekt. U jamoa mulki huquqidagi mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va tasarruf etadi.

Kartel – bu monopolistik birlashma shakli. Bir tarmoqdagi mustaqil korxonalar narxlar, bozor, ishlab chiqarishning umumiy hajmida har bir

ishtirokchining hissasi, ish kuchi yollash, patentlar va boshqa masalalarda o'zaro bitim tuziladi. Bu tuzilmaning maqsadi monopol foyda olishdir.

Sindikant – bu monopolistik birlashmaning bir turi. Ular bir tarmoq korxonalari huquqiy va ishlab chiqarish mustaqilligini saqlab qolgan holda:

- buyurtmalarni taqsimlash;
- xom ashyo sotib olish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish uchun o'zlarining tijorat faoliyatlarini birlashtirib, yagona idora tuzadilar.

Venchur korxonalar – bu kichik biznesning bir turi bo'lib, ular:

- ilmiy muhandislik ishlarini bajarish;
- yangi texnika, texnologiya, tovar namunalarini yaratish;
- ishlab chiqarishni boshqarish;
- tijorat ishini tashkil etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- yirik firmalar va davlat ijara kontrakti buyurtmalarini bajarish kabi ishlarni amalga oshiradilar.

Bu vazifalarni ular davlat va yirik firmalar buyurtmasiga binoan kontrakt-bitimlar asosida bajarishadi. Venchur korxonalar texnikaning yangi yo'nalishlarida faollik ko'rsatadi va bu bilan fan-texnika taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi.

Ijara korxona – bu mol-mulkni yollash bo'yicha mulk egasi bilan tadbirkor o'rtasidagi iqtisodiy munosabat.

Ijara shartnomasiga asosan bir tomon (ijaraga beruvchi) ikkinchi tomonga (ijarachi) ma'lum to'lov evaziga va ma'lum shartga ko'ra mol-mulkini vaqtincha foydalanish uchun beradi.

Ijara haqi mulk egasi mol-mulkining qiymatiga va keltiradigan daromadga bog'liq bo'lib, o'zaro kelishuv bilan belgilanadi.

Er, uy-joy, savdo-sanoat binolari, sanoat va savdo korxonalari, mashina va uskunalarni ijaraga berish va olish jahondagi ko'pgina mamlakatlar uchun xosdir.

Bugungi kunda sanoat va boshqa sohalarda ijara korxonalari paydo bo'la boshladi va mulkni davlat tasarrufidan chiqarishning bir ko'rinishi bo'lib, ijara muddati davrida korxona jamoasi shu korxona mulkining egasi bo'lib qoladi.

Konsalting – bu ishlab chiqarishga ish yuzasidan xizmat ko'rsatish sohasida ixtisoslashgan firmalarning o'z mijozlariga maslahat xizmati ko'rsatish va texnik loyihalarni ekspertiza qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatdir.

Konsalting firmalarining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish uchun sheriklar tanlash;
- maslahatchilik tashkilotlarining taraqqiy topishiga va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashish;
- yagona axborot-so'rovnoma fondini yaratish va yagona reklama strategiyasi (yo'nalishi)ni amalga oshirish yo'li bilan ularning a'zolari faoliyatini umum maqsadlar yo'lida jamlash va hokazo.

Konsalting firmalarining kichik biznes sohasida keng tarqalgan maslahat xizmatlari quyidagilardan iborat:

- barcha mulk shakllaridagi korxonalarni ro'yxatga olish uchun ta'sis hujjatlarni tayyorlash bo'yicha maslahatlar berish;
- marketing bo'yicha izlanishlar o'tkazish;
- xususiylashtirish, aktsiyadorlashtirish dasturlarini ishlab chiqish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha maslahat berish;
- reklama strategiyasini ishlab chiqish, reklama materiallarini tayyorlash va ularni tarqatish;
- huquq, moliya va boshqaruv masalalari bo'yicha maslahatlar berish;
- intellektual mulkni himoya qilish masalasi bo'yicha maslahatlar berish;
- ishchi xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish;
- tadbirkorlik va kichik biznesni taraqqiy toptirishga xizmat qiluvchi tadbirlarni o'tkazish;
- firma ish uslubini ishlab chiqish;
- xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish sanitariyasi, madaniyat, atrof-muhitni himoya qilish masalalari bo'yicha maslahatlar berish;

- investitsiyalarni jalb qilish, imtiyozli kredit olish, zaruriy resurslarni va kapitallarni sotib olish bo'yicha maslahatlar berish va h.k..

Injiniring korxona – muxandislik-maslahat xizmatlarni tijoratchilik qoidalariga asoslangan holda amalga oshiradi.

Bunday korxona (firma):

- ishlab chiqarishni ta'minlash;
- mahsulot sotishni uyushtirish;
- ishlab chiqarish ob'ektlarini qurib, ishga tushirish yuzasidan maslahat berish bilan shug'ullanadi.

Eksport injiniring firmalari boshqa mamlakatlarga xizmat ko'rsatadi, chet eldagi ilmiy g'oyalar va texnik ishlanmalarni xorijda joriy etadi, murakkab va ulkan loyihalarni amalga oshiradi. Injiniring bilan birga mashina va uskunalarni eksport qilib, etkazib beradi.

Chet ellarda tadbirkorlikni qullab-quvvatlanishi.

Bizning mamlakatimizda xorijiy mamlakatlar tajribalariga suyanan xolda, tadbirkorlikni rivojlantirishga davlat tomonidan katta e'tibor berilmokda. Bunda 1995 yilning 21 dekabrda Oliy Majlis tomonidan qabo'l qilingan "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ragbatlantirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini misol qilib ko'rsatsa bo'ladi. Erkin raqobatga tobora keng imkon yaratish, turli mulkchilik shakllaridagi bozor sub'ektlar o'rtasida bo'ladigan iqtisodiy huquqiy munosabatlarni jaxon andozalari darajasida tashkil etish borasida ushbu qonun muqim ahamiyat kasb etadi.

Mazko'r qonunning 2-moddasida kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining mikesi anik belgilab berilgan. Jumladan, sanoat va ko'rilishda - 50 kishigacha, kishlok xo'jalikigi va ishlab chiqarishning boshqa soqalarida -25 kishigacha, fan va ilmiy xizmat ko'rsatishda-10 kishigacha, chakana savdoda-5 kishigacha bo'lgan korxonalar kichik va xususiy tadbirkorlik doirasidagi korxonalar bo'lib qisoblanadi.

Xush, kichik biznes va tadbirkorlik rivojlangan davlatlarda qanday e'tirof etiladi va uning moxiyati nimadan iborat

AKShda 500 tagacha xodimi bo'lgan korxona kichik korxona bo'lib qisoblanadi. Germaniya va boshqa Garbiy Evropa davlatlarida esa, 300 tagacha xodimi bo'lgan korxona kichik korxona qisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlarda kichik korxonalarning ikkita tamoman o'zgacha turlarga bo'lish mumkin:

- 1) hayotni ta'minlovchi korxonalar;
- 2) tez usuvchi korxonalar.

Odatda kichik korxonalarning 80-90 foizi uta kichik bo'lib, ular usish uchun cheklangan imkoniyatlarga ega. Bunday korxonalar hayotni ta'minlovchi korxonalar deb yuritiladi. Ushbu turdagi korxonalarga konsultatsion xizmat ko'rsatuvchi firmalar, tor doirada ixtisoslashgan dukonlar, kafe va shu kabilar kiradi. Ulardagi xodimlar tulik bo'lmagan ish kuniga ega bo'lib, firma manzillari sifatida tadbirkorlar o'z uylaridan foydalanadilar. Hayotni ta'minlovchi korxonalar kichik biznes korxonasi bo'lib, uning egasi etarli turmush darajasini ta'minlash maksadida tashkil etadi.

Ikkinchi turdagi korxonalar tez usuvchi korxonalar deb nomlanadi. Ularning bunday nomlanishiga sabab, ularning maksadi tezrok kichik biznes chegarasidan chikib rivojlanishdir. Tez usuvchi korxonalar kichik biznes korxonasi bo'lib, ular tezkor usish tendentsiyasiga va kuyilgan sarmoyaning yukori kaytimligiga qisoblanadi. Odatda, bunday turkum korxonalarga bir necha kishi raxbarlik kiladi. Tez usuvchi korxonalar yirik investitsiya manbalariga tez yakinlasha oladilar va buning natijasini keng bozorda yangi tovarlar va xizmatlarini kiritish imkoniga ega bo'ladilar.

Bunday turdagi korxonalarni xar yili AKShda chop etiladigan "Ink" jurnalida e'lon qilishadi. 1990 yili 500ta shunday kompaniyaning yillik oboroti 9,6 mlrd. dollarga teng bo'ldi va 56,8 ming ish joyi xosil kildi. 1990 yilda bu ruyxatda "Konjentriks" firmasi peshkadamlik egallab, uning asosiy faoliyati "Sharlotta" shaxrida (shim. Korolina shtati) elektrostantsiyalarni ko'rish va ta'minlash bo'lgan. Ma'lum yillarda ushbu ruyxatda "Charlz Shvab" va "Mikrosoft" korporatsiyalari

karvonboshilik kilganlar. Xozirgi paytda ushbu korporatsiyalar yuksak rivojlangan korporatsiyalar safiga kiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'z kullami jixatdan iqtisodiyotni o'zluksizligini va barqarorligini ta'minlashda katta urin egallaydi. Kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiyotga ta'sir kulami bir kator iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy va jixatlarni o'z ichiga oladi. Biz fakatgina iqtisodiy jixatdan muqim bo'lgan xususiyatlar xususida tuxtalamiz.

Bo'lar quyidagilardir:

ish joylarini tashkil etishdagi mavkening yuksalishi. Utgan 10 yil mobaynida AKSh kichik biznes bo'yichacha boshqarmasining axborotiga ko'ra yangi ish joylarining yarmidan ko'pi 100 kishidan kam xodim ishlaetgan korxonalar xisssasiga to'g'ri keladi.

Tez usuvchi firmalar yangi firmalarning 27 foizi tashkil etib ular 60 foiz yangi ish joylarini xosil kiliishda katnashmokdalar. Shu bilan birga kichik biznes xosil qilingan ish joylarining:

a) ish xakiga kushimcha tulovlar, imtiezlarning bir muncha pastligi; ish joylarini qarib 25 foizi notulik ish kuni tartibida shakllanadi; ularda ishlovchilar tarkibining turli-tumanligi ya'ni ma'lumot dastlab ishlamaganlar, yosh jixatdan o'rta yoshlar va o'rta yoshdan utganlar salmoqini ko'pligi bilan ajralib turadi.

b) yangi tovarlar va xizmatlarni tadbiq qilish. AKSh milliy fondining qisoblariga ko'ra 98 foiz yangi maqsulot xususidagi tadjikotlar kichik biznesda yaratilgan. Bu uta muqim ko'rsatkichdir. Eng yirik kashfiyotlar: xavfsiz ustaralar, elektron soatlar, vertalyotlar, zanglamas pulat va boshqa tovarlar kulami bevosita kichik biznesda yaratilgan.

v) yirik koorporatsiyalar extiyojini kondirish. Yirik kompaniyalar maqsulotini sotish, uni bozor talablari asosida shakllanishiga kumak berishda kichik korxonalarning roli yukoridir. O'z navbatida yirik rivojlanuvchi firmalar o'z iqtisodiy strategiyalarida mayda ta'minotchilar bilan aloka urnatishni samarali qisoblaydilar.

Chunki ular moslashuvchanlik xususiyatiga egadir.

g) maxsus tovarlar va xizmatlar bilan taminlash vazifasi. Kichik korxonalar mijozlarning o'zgacha maxsus extiyojlarini kondirishga etakchi urin egalaydilar. Chunki 1-dan, maxsus talabning ommaviy tusga ega emasligi va uning yirik ishlab chiqarishda tashkil etish samarali bo'lmasligi sabab bo'lsa, 2-dan esa, boy xaridorlarning "o'ziga xos" istaklarini mavjudligidir.

**Rivojlangan mamlakatlarda turli mulk shaklidagi
korxonalarda sanoat maqsulotlari xajmining
taqsimlanishi (ja'miga nisbatan %)**

Ko'rsatkichlar	AKSh			Frantsiya			Yaponiya		
	Kopxonalar								
	yirik	o'rta	kichik	yirik	o'rta	kichik	yirik	o'rta	kichik
Korxonalarining umumiy soni	0,5	7,9	91,6	0,1	1,5	98,4	1,4	21,6	77,0
Sanoat maqsulotlari xajmi xissasi, %	35,0	28,4	36,6	42,1	19,1	38,8	34,4	30,1	35,4

Kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishiga bir kator omillar ta'sir ko'rsatadi. Bo'lar quyidagilardir.

Korxonalarni yiriklashuvi tendentsiyasining pasayishi. AKShda yakin 15-20 yil ichida korxonalarning yiriklashuvi tendentsiyasi pasayadi. Bu asosan, xizmat ko'rsatish soqasidagi siljishlar bilan boqliq. Albatta, bu xizmat ko'rsatish soqasida faoliyat masshtabini uncha kengaytirish imkoni pastligi bilan belgilanadi. Xozirgi pa1ytda xizmat ko'rsatish soqasidagi kichik korxonalar yirik raqobatchilarga nisbatan ayrim yumushlarini samarali tashkil kila olmokdalar. Bu birinchi navbatda boshqarish tizimining soddaligi va ixchamligi bilan boqliqdir.

Ayollar ish kuchining iqtisodga kirib kelishi.

80-yillarning o'zidagina 2 mln. Aellar o'z ish joylarini ochdilar. Xozir AKSh da 4-5 korxona aellarga tegishli bo'lib, ular mamlakatdagi ja'mi kichik korxonalarning 30 foizini tashkil etadi. Bu tendentsiya davom etsa, yu 2000 yilga borib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda aellar va erkaklar soni tenglashadi.

Yirik ishlab chiqarishda xodimlarni qisqarishi.

Bu ayrim jixatdan demografik omillar bilan boqliq. Jumladan “demografik portlash” davrida tugilganlar xozirgi 30-40 eshga ,ya'ni o'z ishini mustakil boshlash vaktiga etdilar. Bundan tashkari, yirik korxonalarda ish o'rni uchun ko'rash, o'rta butun xodimlarning qisqarilishi bevosita kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

4) Yangi korxonalar ochish sur'atining ortishi.

AKShda xar yili o'rtacha 200 mingga yakin axoli o'zining firmasini ochadi. Ularning yarmidan ko'pi 20 ming dollardan kam oborot bilan o'z faoliyatlarini boshlaydilar. Ularning kariib 75 foizini o'z firmalarida 50 soat ishlaydilar, 25 foizi esa, 70 soat va undan ortik ishlaydilar. Qarib 2G`3 qismi yangi biznesni boshlovchilar yangi yoki boshlaetgan kompaniyalar qisoblanadilar. Ya'ni, ular amalda ishlayotgan korxonalarni sotib olmaganligidan o'zlari xususiy biznesni boshlaydilar. Ularnig 80 foizidan ortigi o'z ishlarini uta samarali qoyani emas, yu balki oddiy ishlarni tartibli xal qilish bilan boqlaydilar.

Demak, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni umumiyashtirsak, ular quyidagilardan iborat:

Korxonalar yiriklashuvi tendentsiyasining pasayishi:

ayollar ish kuchining iqtisodiyotga kirib kelishi;

yirik ishlab chiqarishda xodimlarning qisqarishi:

yangi korxonalarni ochish sur'atining ortishi va boshqalardir.

1.2.Tadbirkorlik va kichik biznes tushunchasi, mohiyati va uni rivojlantirish uchun shart- sharoitlar.

Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos iqtisodiy faoliyatdir. Boshqacha aytganda, u muayyan ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maksadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni tashkil etish bo'yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maksadli iqtisodiy faoliyatidir. "O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik to'g'risida" gi qonunida tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Tadbirkorlik-mulkchilik sub'ektlarining foyda olish maksadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir".

Tadbirkorlikning mohiyati quyidagilar orqali yanada oydinlashadi:

Birinchidan, tadbirkorlikning sub'ekti kim bo'lishi mumkin O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonunga muvofik balogat eshiga etgan xar bir fukaro o'z mulki asosida eki mulk egasining vakolati asosida o'z ixtier etgan qonunga zid bo'lmagan faoliyat turi bilan shugullanishi mumkin.

Ikkinchidan, yukoridagi ta'rifda tadbirkorlikning yana bir tomoni mazmuni ifoda etilgan bo'lib, u mazmunan boy, xilma xil ko'rinishiga ega. Tadbirkorlik faoliyatini tanlash, uni tashkil etish va rivojlantirish mohiyat jixatidan davlat, jamiyat ahamiyatiga molik ish bo'lmasdan, balki erkin tanlanadigan faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyatining uch turi va unga mos ravishda tadbirkorlarning 3 guruxini aloxida ko'rsatish mumkin:

yangi tovar yoki xizmat loyixasini tashkil etish. Tadbirkorlikning bu turi bilan intellektual mulk egalari innovatsiya tadbirkorlari shugullanadi.

tovar ishlab chiqarishni tashkil etish bilan shugullanuvchi tadbirkorlar.

tovarni sotish, kayta sotish va tijorat ishlarini tashkil etish bilan shugullanuvchi tadbirkorlar.

Uchinchidan, maksad jixatidan tadbirkorlikning ikki turini:

a) foyda olishni, iqtisodiy samaraga erishishni maksad kilgan;

b) ijtimoiy samaraga (masalan, tabiat muxofazasi, yosh avlod tarbiyasi, soglikni saklash) erishishni maksad qilgan turlarini ajratish mumkin.

Tadbirkorlarga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

Shugullanayotgan soqa bo'yichacha ilm, bilimga egaligi.

Tavakkalchilikka asoslangan qarorlar qabo'l qilish bo'yicha tashabbuskorlik kobiliyati.

Iqtisodiy jarayonlarni chuqur fikrlay olish.

Qonunlarga itoatkorligi.

Innovatsiyachilikning faolligi.

Maksad sari intiluvchanlik.

Tashkilotchilik.

Tejamkor bo'lishi.

O'z so'zining ustidan chikish.

Ruxiy poklik va xalolligi.

O'z jamoasi uchun ko'rashuvchanlik.

Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar talab etiladi:

Mulk munosabatlarning uygunlashuvi. Bozor iqtisodieti sharoitida mulkiy munosabatlar uch jixat bilan belgilanadi: --

egalik qilish, ya'ni mulk egasi sifatida mulkka tula xukumronlik qilish: sotish, ijaraga berish, xadya etish;

foydalanib turish, ya'ni mulk egasining nazorati asosida ma'lum shart va tulov evaziga mulkdan vaktincha foydalanish;

operativ tezkor boshqarishni, yangi mulk egasining nazorati ostida resruslarni taqsimlash va ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yichacha mulkni boshqarish huquqini joriy etish.

Tadbirkorlarga o'z kobiliyatini tula namoen etish uchun quyidagi iqtisodiy erkinliklarning berilishi.

maqsulot assortimenti turlarini ava ishlab chiqarish usulini tanlash erkinligi;

qamkorliklarngi mustakil tanlash;

mablaglarni qonunga zid bo'lmagan soqalarga mustakil sarflash erkinligi va x.k.;

Bozorning ochiqligi, ya'ni tovarlar, sarmoyalar, ma'lumotlar, ish kuchi, xom ashe xarakati uchun sun'iy qoyalarning yukligi.

Bozor infrato'zilasining mavjudligi.

Bunga quyidagilar kiradi:

tijorat banklari;

tovar, fond, mexnat, valyuta birjalari;

tijorat tavakkalchiligi va mulk sugo'rtasi;

ma'lumot va reklama manbalari, ommaviy axborot vositalari, aloka vositalari;

ekspert byurolari, sertifikat markazlari, bojxonalar, solik nazorati tashkilotlari, arbitrajlar va x.k.

Tadbirkorlik uchun huquqiy kafolatning mavjudligi, ya'ni tadbirkorlikni ximoyalovchi qonunchilikning mavjudligi.

Yangi korxonalarga kadrlar tayyorlash, kredit olish, solik tulash, tabiiy boyliklardan foydalanish bo'yichacha davlat tomonidan berilgan imtiyozlar va x.k.

1998 yil 9 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada ragbatlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonida ko'rsatilishicha: xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyati soqasiga kredit resurslarini keng jalb qilish va xorijiy sarmoyalarni bevosita olib kirish uchun makbo'l sharoit yaratish maksadida;

Kichik va o'rta biznes sub'ektlari kuidagicha belgilangan:

mulk shaklidan kat'iy nazar ishlab chiqarish soqasi yiliga o'rtacha qisobda 10 nafargacha, savdo xizmat ko'rsatish qamda boshqa ishlab chiqarishdan tashkari soqalarda 5 nafargacha ish bilan band xodimga ega bo'lgan mikrofirmalar bo'lib qisoblanadi;

mulk shaklidan kat'iy nazar ishlab chiqarish soqasidan yiliga o'rta qisobda 40 nafargacha ko'rilish korxonalari va boshqa ishlab chiqarish soqaslari da 20 nafargacha;

ilm-fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, chakana savdo qamda boshqa ishlab chiqarishdan tashkari soqalarda 10 nafargacha ish bilan band xodimga ega bo'lgan kichik korxonalar bo'lib qisoblanadi;

mulk shaklidan kat'iy nazar kichik korxonalar uchun yiliga belgilangandan ortik, lekin ishlab chiqarish soqasida 100 nafardan, ko'rilishda 50 nafardan kishlok xo'jalikigi va boshqa ishlab chiqarish soqalarida, ulgurji savdoda 30 nafardan, chakana savdoda, xizmat ko'rsatish qamda boshqa ishlab chiqarishdan tashkari soqalarida 20 nafardan oshmaydigan ish bilan band xodimlarga ega bo'lgan o'rta korxonalar bo'lib qisoblanadi.

Xozirda tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik va xususiy tadbirkorlik soqasiga xorijiy sarmoyalarni olib kirish uchun mikrofirmalar, kichik korxonalar va o'rta korxonalar tashkil etilib, makbo'l sharoitlar yaratilmokda.

QISQA XULOSA

Korxonalarda davlat tasaruffidan chiqarish va xususiylashtirish iqtisodiy isloxotlarning etakchi buqini bo'lib, xususiylashtirish natijasida turli mulkchilik katamlari shakllandi va ularda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga aloxida ahamiyat berilmokda.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi sharoitlarni yaratish xukumat ma'suliyatidagi ish qisoblanadi. Uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar katoriga davlatning iqtisodiy siesati, axolining ijtimoiy ahvoli,raqobatning shakllanish darajasi, tadbirkorlikning raqobatlantirilishi va boshqalarni kiritish mumkin.

Tadbirkorlik mulkchilik sub'ektlarining foyda olish maksadida tавvakal qilib va mulkiy javobgarlik asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir.

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining ishlab chiqarish, tijorat, moliya va maslahat tadbirkorligi kabi turlari keng rivoj topmoqda. Mamlakatimizda tadbirkorlikning yakka tartibdagi, xususiy, jamoa va aralash shakllari faoliyat

ko'rsatadi. Jamoa tadbirkorligi firmalar faoliyatida o'z ifodasini topadi. Firma – muayyan turdagi mahsulot ishlab chiqarishga va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan, bozordagi talab va taklifga qarab ish tutadigan, iqtiso-diy jihatdan erkin va mustaqil korxonadir. Firmalarning turlari ko'p. Ularni

- xususiy firmalarga;
- shirkat firmalariga;
- davlat korxonalariga;
- aralash firmalarga ajratish mumkin.

II-bob: Tadbirkorlikning davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi va boshqarilishi

2.1. Tadbirkorlikning xar tamonlama qullab-quvvatlash zaruriyati.

O'zbekistonda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni chuqurlashtirishning davlat dasturida tadbirkorlikni qullab-quvvatlash va xususiylashtirishdan keyingi davrda korxonalar bir maromda ishlashini ta'minlash choralari ko'zda tutilgan. Buning uchun davlat:

maxsus investitsiya fondlari va banklar to'zadi;

xususiylashtirishdan olingan mablag'larga xususiylashtirilgan korxonalarni rivojlantirish dasturlarini qullab-quvvatlashda foydalaniladi;

davlatga tegishli aktsiyalarga olingan dividendlarni texnika jixatdan kayta ko'rollantirish va asosiy fondlarni yangilashga yunaltiriladi;

bojxona tulovlari va soliklarining ayrim turlarini pasaytirish eki bekor qilish, narx belgilash va litsentsiyalash xajmlarini kamaytirish va shu kabi ko'rinishdagi turli imtiezlarni belgilaydi;

tadbirkorlikning huquqiy va iqtisodiy muxofazalanishini kafolatlaydi.

Davlat tadbirkorlar uchun shart-sharoitlar yaratishda xal kiluvchi rol uynaydi. Bugungi kunda bozor iqtisodieti sharoitida tadbirkorlik rivojlantirish uchun xizmat kiluvchi shart-sharoitlarni yaratilishi kerak.

Bu zarur shart-sharoitlar nimalardan iboratq Bir necha asosiy qoidalar borki,ularga amal kilmok kerak:

-salmokli huquqiy va ma'muriy tartibga asoslangan bozor iqtisodietiga yunalgan siesat;

-boshlovchi tadbirkorlarni ukitish dasturlarni ishlab chikish;

-mablagdan unchalik katta bo'lmagan yangi korxonalar qam foydalana olishini ta'minlovchi tadbirkorlikning davlat tomonidan qullab-quvvatlanishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 21 yanvardagi "Iqtisodiy isloxotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk muxofazasini ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida" gi Farmoni bilan xususiy mulkchilik asosidagi tadbirkorlikning yuzaga kelishi iqtisodiy isloxotlarning xozirgi

boskichidagi eng asosiy vazifalaridan biri sifatida kayd etildi. Bu vazifani xal etish uchun tadbirkorlikni qullab-quvvatlash tizimi yaratildi. U qonunlar, Prezident Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qarorlarini o'z ichiga oluvchi tegishli miyyoriy-huquqiy xujjatlarga asoslanadi.

Respublika bozor iqtisodietiga o'tishning o'z yulini tanlab oldi. U iqtisodiy isloxlarni utkazishning 5 asosiy qoidasiga asoslanib, "Davlat bosh isloxatchi" ekanligini ko'rsatdi. O'zbekiston xukumati tadbirkorlikni qullab-quvvatlashning kudratli yulini qabo'l kildi.

Kishlok xo'jalikigi, savdo, umumiy ovkatlanish va axoliga maishiy xizmat ko'rsatish korxonolari kushimcha kiymat uchun solik tulashdan ozod qilinganlar.

Xalk iste'mol buyumlari, ko'rilish materiallari ishlab chiqaruvchi xususiy korxonalar 2 yil mobaynida daromad soligidan ozod qilinganlar, keyingi 2 yil ichida esa, kamaytirilgan stavkalarda solik tulaydilar.

Kishloklarda joylashgan kichik korxonalar, erdamchii ishlab chiqarishlar, xunarmandchilik mol-mulkiga, kushimcha kiymat, er, transport soligi, amortizatsiya ajratmalari, kishlok xo'jalikik maqsulotlarini kayta ishlash va xalk iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishga soliklar stavkasi 50 % kamaytirilgan.

Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda 70-yillarning o'rtalaridan boshlab iqtisodiy tanglik davrida iqtisodiy usishning yangi modeli shakllana boshladi. Uni innovatsion yoki axborot-industrial model sifatida ta'riflash mumkin. Ko'pchilik firmalar uchun urganish bo'lgan ishlab chiqarish va marketing infrastrukturasi sifat jixatidan yangi texnologiyalar, talab va taklif konyukturasi bilan almashdiki bu xo'jalikikning yuritish sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda o'zgarishlarga olib keldi. Iqtisodiy usish samaradorligini oshirishda yangi boskich boshlandi. U tadbirkorlik sa'y-xarakatning xiyla xujumkor tipini shart qilib kuydiki, bu rux tovar ishlab chiqaruvchiga bozor muvvafakiyati va etakchilikni ta'minladi. Tadbirkorlik faoliyat turi sifatida o'zini o'zi tartibga solib turuvchi tizim xususiyatlarini egallaydi.

Bu jarayon quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Bozor iqtisodieti amal qilgan barcha mamalatlarda o'z xususiy ishini yulga kuyishga kulam jixatidan mislsiz intilish yuzaga keldi. AKShda keyingi 20 yil ichida korxonalarning umumiy mikdori deyarli 3 barobar, Yaponiyada- taxminan 2 marta ko'paydi. Italiyada esa, xar yili 300 mingga yaqin yangi korxona paydo bo'lardi.

Tadbirkor jamiyatining ijtimoiy tarkibida muqim urin egallab, "zamonasining yangi kaxramoni" ga aylandi.

Barcha darajalarda turli xil ma'muriy-qonunchilik cheklovlarini bekor qilish natijasida tadbirkorlikning xo'jalik erkinligi darajasi keskin oshdi.

4.Tadbirkorlik bilan shugullanish uchun sifat jixatidan boshqacha shart-sharoitlar takib topdi: venchur mablagi bozori tez usdi, moliya muassasalarini diversifikatsiyalash va axolining moliya mablaglarini jalb etish imkonlari kengaydi. Fukarolar va tashkilotlarning biznesdagi axborotlarga etishishi yaxshilandi (inkubatorlar, innovatsion parklar, ryunder markazlari va shu kabilar).

O'zbekiston xususiylashtirishdan olingan barcha mablaglar byudjetga emas, balki xususiylashtirilgan korxonalarni qullab-quvvatlashga, tadbirkorlik va bozor tarkiblarini rivojlantirishga yunaltiriladigan yagona davlatdir.

Xalkaro tashkilotlar (Jaxon banki, BMT-YuNIDO) tomonidan kayd qilinishicha korxonalar va tadbirkorlik faoliyatini xususiylashtirishdan keyingi qullab-quvvatlanishning O'zbekistonda amal qilinaetgan tizimi MDX mamlakatlari orasida uxshashiga ega emas.

Xususiylashtirish va davlat tassarufidan chiqarishning davlat dasturidan tashkari O'zbekistonda xalk xo'jalikigining barcha tarmoklarida shu jumladan, kishlok xo'jalikigida aloxida, tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari qabo'l qilinib, amalga oshirilmokda. 1994 yili Korakalpogiston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shaxrini kamrab oluvchi mintakaviy dasturlar ishlab chikildi va amalga oshirila boshladi.

Solik solish soqasidagi qonunlarni takomillashtirish borasida ishlar chuqur uylab olib boriladi.Mutaxassislarning baxolashicha O'zbekistondagi solik tizimi sobik SSSRning barcha respublikalaridagidan, Evropadagi ko'pgina mamlakatlar va AKShdagidan ko'ra progressivrokdir.

Bundan tashkari, xususiy korxonalar ishlab chiqarishni rivojlantirish, maqsulot chiqarishni ko'paytirish, solik olinmagan mablaglarni ijtimoiy ehtiyojlarga yunalatirish maksadida daromaddan olinadigan solik bo'yichacha imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

Ish boshlagan dastlabki ikki yil ichida xususiy korxonalar mulkga solinadigan soliklardan, 1995 yildan boshlab esa, barcha korxonalar 20 % lik ammortizatsiya ajratmalari tulashdan ozod qilindilar.

Xususiy mulk shaklida xususiylashtirilgan korxonalar (Maxalliy sanoat, maishiy xizmat, davlat savdosi, umumiy ovakatlanish, matlubot korporatsiyasi, "O'zmevasabzavoto'zumsanoat") order olgan vaktlaridan boshlab dastlab 2 yil ichida mulk soligi, resurs tulovlari, 20 foizli amortizatsiya ajratmalarini tulashdan ozod qilinganlar.

Xalk iste'moli buyumlari va kishlok xo'jalik maqsulotlari ishlab chiqarish bo'yichacha yangidan tashkil etilaetgan xususiy korxonalar ko'pgina soliklardan ozod etilgan, boshqa chet el davlatlari bilan kiyoslansa, ularning solik yuki ancha engil. Chunonchi, Germaniya, Frantsiya, AKSh va bozor iqtisodieti rivojlangan boshqa mamlakatlarda Turkiya va xatto usha Rossiyada qam xususiy korxonalar uchun solik yukining tushumining 40 foizidan 60 foizgacha bo'lgan qismini tashkil etadi.

O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Mustaqillik yillarida respublikamizda kichik biznes sezilarli rivojlandi. Ammo kichik korxonalarni tashkil qilish sur'ati, ularning barqaror rivojlanishi va umumiy iqtisodiy tizimdagi o'rni hali bozor iqtisodiyoti talablariga to'la javob bermaydi. Kichik biznesni rivojlantirish yo'lida ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'ldi, ularni faqat davlat tomonidan ko'rilgan tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar asosidagina bartaraf qilish mumkin.

Bozor iqtisodiyotining muhim sohasi bo'lgan kichik biznesni tashkil qilish va uni rivojlantirish biz uchun yangi va murakkab jarayon bo'lib, doimiy

e'tibor qaratishni, yordam va qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Tadbirkorlar o'z faoliyatlarining barcha bosqichlarida ko'plab to'siqlarni engib o'tishga majbur bo'lmoqdalar, katta qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Tadbirkorlik muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlardan birida quyidagi natijalar olindi:

- tadbirkorlarning 40 foizi tijorat banklari, biznes-fondlar va boshqa tuzilmalardan kredit olishda qiyinchiliklarga duch kelgan;

- ularning 50 foizi bank to'lovlarini rasmiylashtirish va buxgal-teriya hisoboti formalarini to'ldirishda qiyinchiliklarga duch kelgan;

- tadbirkorlarning 40 foizi ko'psonli nazorat organlari tomo-nidan tekshiruvlarning tez-tez bo'lib turishini ko'rsatgan;

- ularning 72 foizi soliqlarning yuqoriligidan shikoyat qilgan;

- tadbirkorlarning 64 foizi sudlar xo'jalik va boshqa masalalardagi nizolarni xal qilishga qodir emas, deb hisoblaydi;

- tadbirkorlarning 83 foizi xususiy korxonalarni ro'yxatdan o'tkazishda qiyinchiliklar mavjudligini bildirgan va ushbu rasmiyatchiliklar-ning juda murakkabligi, talab qilinadigan qo'shimcha hujjatlarning haddan tashqari ko'pligini, ro'yxatdan o'tkazish muddati 7-30 kun o'rniga undan ham uzoqqa cho'zilib ketayotganligini aytgan;

- tadbirkorlarning 70 foizi banklar tomonidan statistik va moliya-viy hisobotlar bilan ta'minlanmagan, ularni to'ldirishdagi qiyinchiliklar ustidan shikoyatlar tushgan;

- tadbirkorlarning 52 foizi erkin raqobat uchun kerakli sharoitlar yo'qligidan shikoyat qilgan;

- tadbirkorlarning 69 foizi tadbirkorlik faoliyati shakllari ora-sida moddiy va moliyaviy resurslar olishda tengsizlik mavjudligini aytgan;

- tadbirkorlarning 66 foizi hokimiyat va boshqa organlarning korxonalar faoliyatiga aralashayotganlarini bildirgan;

- tadbirkorlarning 50 foizi zaruriy axborotlar bilan etarli ta'minlanmaganligidan shikoyat qilgan;

- 80 foiz tadbirkorlar sug'o'rta tashkilotlarining faoliyatidan qoniq-maganligini

bildirgan;

- tadbirkorlarning 80 foizi tijorat banklaridagi o'z hisob raqam-larida turgan pul resurslarini erkin tasarruf qilish uchun sharoitlar yo'qligini aytgan;

- nihoyat, tadbirkorlarning 80 foizi eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda jiddiy qiyinchiliklarga uchrayotganligini ta'kidlagan.

Ushbu holat faqat o'z kuchlariga ishonib tadbirkor bo'lish istagining o'zi kichik biznesni tez va muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun etarli emasligidan dalolat beradi.

Tadbirkorlar duch kelayotgan qiyinchiliklar va muammolarning bunday uzun ro'yxatini keltirishdan maqsad ularning xo'jalik yuritish jarayonida ko'plab to'siqlarga duch kelayotganligini, ularning bozor munosabatlariga o'tish davrida turli omillar bilan ko'rashayotganliklarini ko'rsatishdir.

Tadbirkorlik faoliyatida kuzatilayotgan ko'plab qiyinchiliklar va kamchiliklar kichik biznesni barpo etish va rivojlantirishni jiddiy qo'llab-quvvatlash zarurligini tasdiqlaydi. Bu avvalo, tadbirkorlik faoliyatining o'zi bilan bog'liq bo'lgan, kichik biznesni tashkil qilishning mohiyatidan kelib chiqadigan qiyinchiliklardir. Ko'pgina kichik korxonalarda tadbirkorlarning o'zlari ta'minot, savdo, ishlab chiqarishni tashkil qilish, iqtisod, buxgalteriya va shu kabi barcha boshqaruv funktsiyalari bilan yakka tartibda shug'ullanadilar. Tabiiyki, bir kishiga bu murakkab funktsiyalarning barchasini professional darajada bajarish qiyinlik qiladi. Shuning uchun xo'jalik jarayonlarida qabo'l qalinayotgan qarorlar har doim ham samarali bo'lmaydi, bu esa kichik korxonalarning bankrot bo'lishiga olib kelayotgan asosiy sabablardan biridir.

Tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyati borligi sababli unda tinimsiz ravishda me'yorlanmagan mashaqqatli mehnat, ulkan mas'uliyat, xatarlarning kattaligi va daromadlarning muntazam emasligi kabi shaxsiy muammolar vujudga kelib turadi. Bundan tashqari, tadbirkor har doim yollanma ishchilar, ijarachilar, banklar, moliya organlari, iste'molchilar oldidagi shartnoma majburiyatlarini bajarish tashvishida bo'ladi. Kichik korxonalarning faoliyatiga inflyatsiya, narxlarining o'sishi, talabning kamayishi, valyuta ko'rsklarining nisbati kabi bozor munosabatlari to'liq shakllanmagan tizimga xos bo'lgan iqtisodiy o'zgarishlar ta'sir qilib turadi.

Iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy xarakterdagi chora-tadbirlarga qaramay, tadbirkorlik faoliyatida ko'pgina hal qilinmagan muammolar o'z echimini kutib turibdi. Ularning eng asosiylarini quyida keltiramiz:

- kichik korxonalarni zamonaviy va istiqbolli rivojlantirishning metodologik masalalari na hududiy va na tarmoq miqyosda ishlab chiqilmagan. Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning umumiy ko'rsatkichlarida kichik biznesning miqdoriy tarkibi va salmog'ini aniq hisobga olib borish tizimi yuq. Ayrim tadbirkorlik faoliyat turlarining roli va tutgan o'rnini aniqlash qiyin. Axborot ta'minotiga oid muammolar kichik biznesni rivojlantirish tendentsiyalarini aniqlashga, tadbirkorlik jarayonining muayyan yo'nalishlarini va ustuvor sohalarini tanlashga imkon bermaydi;

- respublika va mahalliy hokimiyat organlaridagi ma'muriy-buyruq-bozlik tizimi tushunchalari bilan eskicha fikrlaydigan rahbar xodimlarning eskicha qarashlari saqlanib kelmoqda, ularning bozor sharoitlariga moslasha olmayotganligi yaqqol sezilib turibdi. Buning oqibatida ko'pgina progressiv (ilg'or) huquqiy aktlar va hukumat qarorlari etarlicha to'liq va o'z vaqtida bajarilmay qolmoqda;

- tarmoq va hududiy boshqaruv organlari tadbirkorlarning muammolari-ni hal qilish maqsadida ularning faoliyatini chuqur tahlil qilmayapti, ularda kichik biznes va xususyi tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida intuitsiya yo'q. Bozor iqtisodiyotida yuzaga kelgan infrastruktura hali natija bermayotganligi tufayli tadbirkorlar axborot xizmatlaridan mahrum, ular biznes-rejalar tuzishda yordamga, malakali maslahatchilarga, auditor xizmatlarga muhtoj;

- mahalliy organlar tomonidan tadbirkorlarga bo'sh ish o'rinlarini, bino va inshootlarni, tugallanmagan qurilish ob'ektlarini, foydalanil-mayotgan transport vositalarini berish bo'yicha shoshilinch choralar ko'rilmayap-ti. Ular kichik korxonalarda davlat buyurtmalarini joylashtirish bilan deyarli shug'ullanmaydilar;

- mulk egalariga binolar buzilganda, mulklar turli sabablarga ko'ra taqsimlanganda o'z mulklariga taalluqli aniq kafolatlar berishni ta'minlov-chi ta'sirchan mexanizm oxirigacha ishlab chiqilmagan;

- tijorat banklari tomonidan ko'plab cheklashlar mavjud. Ko'plab

rasmiyatchiliklarning hal qilinmaganligi tufayli imtiyozli kreditlar olish ayniqsa qiyin;

- me'yoriy va yo'riqnoma materiallarini ishlab chiqishda kichik biznesga xos faoliyat xarakteri, ularning o'ziga xos xususiyatlari to'liq hisobga olinmaydi.

Bu muammolarning barchasi kichik korxonalarni tashkil qilingan paytdan barqaror faoliyat bosqichiga qadar qo'llab-quvvatlash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xo'sh, tadbirkorlar yordamni kimdan kutishi kerakq Avvalo do'stlar va tanishlardan (pul topish yo'llaridan biri). Eski aloqalarga murojaat qilish ham mumkin. Ba'zi firmalar o'z maslahati bilan yordam qilishi mumkin. Yana tadbirkorlarning turli birlashmalari, ittifoq va uyushmalar bor. Ammo eng asosiy yordam faqat davlat tomonidan, uning markaziy va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan bo'ladi.

Bunday qo'llab-quvvatlash so'nggi yillarda tobora kengayib va kuchayib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishi qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishga qaratilgan yangi qonun, qaror va farmonlar qabo'l qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi PF-3619-sonli «Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli «Mikrofirmlar va kichik korxonalarni rivojlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2005 yil 24 iyundagi PF-3622-sonli «Tadbirkorlik sub'ektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlanshtirish to'g'risida»gi Farmonlarini, 2005 yil 15 iyundagi PQ-100-sonli «Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi Qarorining qabo'l qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi PQ-100-sonli «Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq, mikrofirmlar va kichik korxonalar 2005 yil 1 iyuldan davlat soliq xizmati organlariga sliqlar, yig'implar, ajratmalar va boshqa

majburiy to'lovlarni endi har oyda emas, balki choraklikda bir marta topshirishga o'tkazildi.

Ushbu qaror qabo'l qilingunga qadar, mikrofirmalar va kichik korxonalar – yagona soliq to'lovchilar soliq xizmati organlariga har choraklikda faoliyat turiga qarab, soliqlar va majburiy to'lovlar yuzasidan 10-15 ta hisob-kitobni taqdim etardilar. Endi yagona soliq to'lovchilarning topshiradigan hisob-kitoblari soni 7 tadan 4 tagacha, yagona soliq to'lovini to'lovchilarniki esa 4 tadan 1 tagacha qisqardi.

O'z faoliyatini savdo va umumiy ovqatlanish sohasida amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar har choraklikda soliqlar va majburiyat to'lovlar bo'yicha o'rtacha 13 ta hisob-kitobni taqdim etardilar. 2005 yil 1 iyuldan boshlab esa soliq to'lovchilarning ushbu toifasi uchun topshiriladigan hisob-kitoblar miqdori 5 tagacha qisqartirildi.

